IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Suitsidal xulqning yosh, individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Mansurova Odinaxon Ulug‘bek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda dunyoda har 100000 odamdan o‘rtacha 16-17 odam o‘z joniga qasd qilish kuzatiladi va bu har 40 sekundda bitta odamning hayoti zavolga yuz tutayotgani aniqlandi. Maqolada o‘z joniga qasd qilishning eng asosiy tashvishli harakteri bu uning jadal suradda o‘sib borayotgani yoritib berilgan. O’smirlik pubertat davrida suitsidga moyillik darajasi va mamlakatlar kesimida suitsid holatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: suitsid; pubertat; dezadaptatsiya, dunyoqarash, shaxs, discomfort holati, depressiya.

O‘smirlik davriga xos suitsidal xulq-atvorning asosida ta’lim-tarbiya jarayonidagi noto‘g‘ri pedagogik-psixologik ta’sir, o‘smirning shaxslilik xususiyatlari va emotsional holatlaridagi salbiy o‘zgarishlarga ota-onalar, pedagoglar, o‘smirning tengdoshlari tomonidan etarli e’tibor berilmasligi sababli yuzaga kelgan ijtimoiy dezadaptatsiya, ijtimoiy integratsiyaning pasayishi va beqarorligi yotadi. O‘smir va uning ijtimoiy atrof-muhitdagi o‘zaro munosabatlarining buzilishi, shaxslararo aloqalarning qiyinlashuvi, ota-onalar, ta’lim muassasalari xodimlari tomonidan sub’ekt ehtiyojlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda o‘tkazilgan bosim, ularda hayot mazmuni, xavfsizlik va “kerak”lilik hissining yo‘qolishi, ko‘pincha suitsidal xulq-atvor namoyon bo‘lish sabablaridan biridir.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ushbu muammoning o‘rganilishi katta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Chunki o‘smirlarning ta’lim-tarbiyaviy ishlariga mutasaddi xodimlarning faqat ayrimlarigina: a) o‘smirlarning pubertat davri xususiyatlari; b) ruhiy zo‘riqish holatlari; v) o‘smirlik davrining depressiyasi; g) kattalar bilan yuzaga keladigan o‘zaro nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etishning tarbiyaviy usul hamda vositalari to‘g‘risida zarur ma’lumotga egadirlar.

O‘smirlar ham o‘zlarining yosh xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarga, tengdoshlariga yordam berish ko‘nikmalariga ega bo‘lmaganliklari tufayli noxush vaziyatlarda o‘rtog‘ini o‘z joniga suiqasd qilishdan saqlab qolishga qodir emaslar. O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘z joniga suiqasd qilish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatdan etarlicha asoslanmaganligi, ushbu yoshdagilar suitsidining psixologik, pedagogik profilaktikasi, diagnostikasi, korrektsiyasi amaliyotda keng qo‘llanilmayotganligi, o‘smirlar suitsidi va uning oldini olish to‘g‘risidagi axborotlarning etishmasligi, ular o‘rtasida suitsidal faollikni cheklash va oldini olish tarbiyaviy chora-tadbirlari etarli natijalar bermayotganligi mutaxassislar, olimlar tomonidan ta’kidlanmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, o‘smirlarda suitsidoldi sindromi mezonlarini quyidagilarda umumlashtirish mumkin - anamnezda o‘z joniga qasd qilish fikrlarining mavjudligi; - disforik holat qismlari (g‘amginlik, xafalik, tushkunlik hissi); - uyqusizlik, charchoqlik, vegetativ o‘zgarishlar kabi buzilishlar; - o‘z joniga qasd qilishni amalga oshirish usullari haqidagi aniq tasavvurlar shakllanishi aniqlandi.

O‘smirlik yoshi davridagi suitsidal urinish sodir etganlarning xulqi suitsidoldi holati va belgilarini, somatik o‘zgarishlarni tahlil qilinganliklari kuzatildi. Xususan, pubertatoldi va kichik pubertat yoshida suitsidal xulqning asosiy motivi xisoblanib,

asosan, ruhiy nosog‘lomlik va qo‘rqinch holatlariga aloqador bo‘lgan nizoli kechinmalar (6,9 foiz,30,7 foiz) bo‘lsa, pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida shaxsiy, oilaviy, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolar(39,2 foiz,44,9 foiz) hamda ijtimoiy axloq normalari bilan bog‘liq bo‘lgan nizolar tashkil etishi aniqlandi. A.G.Ambrummovani takidlashicha suitsid bu shaxsning boshidan o‘tkazayotgan mikroijtimoiy nizolarga ijtimoiy-psxologik moslasholmasligidir.

Suitsidal xatti-harakatlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan olingan natijalarga ko‘ra qo‘yidagilar ilgari suriladi:

- yoshlar orasida o‘z joniga qasd qilish ruhi tushunchasi, birinchi navbatda, odamlarning o‘z joniga qasd qilish mavzusiga bo‘lgan qiziqishini, ularning hayotga bo‘lgan depressiv ko‘rinishini va o‘z joniga qasd qilish xulq-atvorini namoyon qiladigan fikrlar va tarkibiy tuzilmalarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy kayfiyat shakli sifatida shakllantirilgan;

- o‘z joniga qasd qilish tendentsiyalarining asosiy hal qiluvchi omillarini aniqlashdi: psixologik va ijtimoiy omillar va ijtimoiy-psixologik, disadaptatsiya, nizolar va boshqalarni qamrab oladigan jamiyatdagi insonlarning yashash sharoitlari.

- yoshlar o‘z joniga qasd qilishlari va o‘z joniga qasd qilishlari bilan jamiyatda ijtimoiy-psixologik baholash, ularning jozibadorligi va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida;

- har xil yosh guruhlari (o‘quvchilar, talabalar, yosh mutaxassislar), o‘z joniga qasd qilish holatlarida namoyon bo‘lgan, o‘z joniga qasd qilish tajribasi borligi, uning turlari, paydo bo‘lgan holatlarga oid ijtimoiy va psixologik determinantlar, o‘z joniga qasd qilishning omillari va xususiyatlari, o‘z joniga qasd qilishning ta’siri, o‘rganilayotgan yoshlarning umumiy depressiv kayfiyati;

- ijtimoiy-psixologik omillar (oila va kichik guruhlardagi nizolar, jamiyatda ijtimoiy noqulayliklar) va yoshlarning suiqasd munosabatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik omillar o‘rtasidagi aloqani ochib berdi, yoshlar tashvishlarining tabiati, uning qiymat tizimlari, bo‘sh vaqtni o‘tkazish usullari, qo‘shimchalar va subkulturalar;

- yoshlarning o‘z joniga qasd qilish kayfiyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish uchun maxsus anketa ishlab chiqildi;

- yoshlarning o‘z joniga qasd qilish va o‘z joniga qasd qilish xulq-atvorini maxsus ijtimoiy-psixologik o‘rganish texnologiyasi ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazildi;

- o‘z joniga qasd qilgan yoshlarning ong va muloqotida virtual jamoalar va tematik saytlarning roli va ahamiyati;

- ixtisoslashgan saytlarda virtual aloqa jarayonida o‘z joniga qasd qilish tendensiyalarini amalga oshirishning oldini olish uchun original model ishlab chiqildi;

- yoshlarga turli xil vositalar yordamida o‘z joniga qasd qilishning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Suitsidal urinish haqida noto‘g‘ri va haqiqiy psixologik holatlar quyidagilar:

1. Suitsid haqida ko‘p gapirilayotgan shaxs o‘ziga e’ti borni tortishga urinayot gan bo‘ladi Suitsid xakida tez-tez gapirish inson kalbida turli ruhiy azoblar mavjudligidan va shaxs ularni atrofda gilarga etkazishga urinishdan darak beradi

2. Suitsid to‘satdan yuz beradi 10 tadan 8 holatlarda suitsident o‘z rejasi haqida atrofdagilarga etkazishga urinishdan darak beradi

3. Suitsid irsiy kasallik Shaxs autoagressiv harakat modelini nafaqat oilada o‘zlashtiradi, balki atrof muhitdan andoza oladi

4. O‘z joniga qasd qilish ruhiy kasallik Ko‘pgina suitsidentlar umuman ruhiy kasallikga chalinmagan sog‘lom insonlardir

5. Agar shaxs o‘tmishda suitsid sodir etgan bo‘lsa, bo‘ boshqa

takrorlanmaydi Aksariyat hollarda suitsid takror sodir etiladi

6. Suitsid sodir etuvchilar o‘lishni istaydilar Aksariyat suitsid sodir etuvchilar o‘lishni istamaydilar, balki ularni qiynayotgan forig‘ bo‘lishni istaydilar va yordam qabul kilishga tayyorlaydilar

7.Suitsidga olib keluvchi barcha xatti-harakatlar im- pulsiv (to‘satdan) yuz be- radi Aksariyat suitsidiv harakatlar oldindan puxta o‘ylangan bo‘ladi va uni sodir etuvchilar atrofda-gilarga sezdiradilar

8. Barcha suitsidentlar depressiviv holatda bo‘ladilar

Depressiya suitsidga olib kelishi mumkin, ammo barcha suitsidentlar ham depressiya holatida bo‘lavermaydilar

9. Suitsidni oldini olish mumkin emas Yordam olish imkoniyati mav- judligini anglash aksariyat suitsidlarni oldini olishga imkon beradi

10. O‘z joniga qasd kiluvchilar juda kam holatlarda yordam olishga intiladilar Suitsidid oldi holatlarda 50% ga yaqin shaxslar shifokorlarga, psixologlarga, ota-onalarga murojaat kiladilar

Kuzatishlarga qaraganda, farovon mamlakatlarda bu holat kam kuzatiladi va yoshlar hayoti ko‘proq kambag‘al mamlakatlarda xavf ostida ekanligi haqidagi xulosaga etaklaydi. Endi jins nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, o‘z joniga qasd qilganlar orasida ayollarga qaraganda erkaklar ko‘proq ekanligi ma’lum bo‘ladi.

"Bu farqning ortida turgan omil jamiyatlarda "erkaklarning erkak bo‘lishlari kerak"ligi borasidagi qarashlardir", deya tushuntiradi Sazerland. Lekin kambag‘al mamlakatlarda erkak va ayollar orasida o‘z joniga qasd qilish hollari o‘rtasidagi farq kamroq ekanligi kuzatiladi. Farovon mamlakatlarda erkaklar ayollarga qaraganda, uch marotba ko‘proq o‘z joniga qasd qilsalar, kambag‘al va o‘rtahol mamlakatlarda bu farq atigi yarim barobar. Xavotirli yeri shuki, jahonninng ba’zi mintaqalarida o‘z joniga qasd qilish 15-19 yoshda bo‘lganlar orasidagi o‘limga sabab bo‘luvchi asosiy omilga aylangan. Masalan, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida. O‘smirlik yoshida bo‘lgan va olamdan o‘tgan har olti qizdan biri o‘z joniga qasd qilgan. "Taxminimiz shuki, u mintaqada o‘z joniga qasd qilishning «samaraliroq» yo‘llariga etishish osonroq va yordam etkazish imkonlari kamroq", deydi Fleyshmann. Mutaxassislarning aytishlaricha, o‘z joniga qasd qilish "birdaniga bir kuni" ro‘y berib qolmaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, o‘zini o‘ldirgan o‘smirlardan 90 foizi qaysidir darajada ruhiy salomatlik muammosiga ega bo‘lganlar. Bu o‘rinda tushkunlikdan (depressiya) tortib, vos-vos, zo‘ravonlik va giyohvand moddalarga mukkasidan ketish tilga olinadi. Lekin boshqa tomondan yashash sharoitining o‘zgarishi, maktab va do‘stlar bilan muammolar va jinsiy moyillik yuzasidan noaniqlik ham omillar sifatida namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.cShuning uchun erta ogoh beruvchi xavotirli belgilarga e’tibor qaratish kerakligini unutmaslik lozim bo‘ladi. Bu hafta Britaniya oliygohlariga yangi talabalarning kelib qo‘shilishlari kuzatilar ekan, Samaritans tashkiloti yoshlar orasida o‘z joniga qasd qilish hollarining oldini olish bo‘yicha kampaniya o‘tkazmoqda."Oliygohdagi hayot ko‘pda quvnoq, jo‘shqin va o‘z-o‘zini bilish tomon safar sifatida taqdim etiladi. Ko‘plar uchun shunday bo‘lishi mumkin, lekin ba’zilar uchun uydan boshqa joyga ko‘chishning o‘zi katta bir muammoga aylanadi", deydi tashkilot boshqaruvchi direktori.

Lekin ruhiy muammolarga yuz tutayotgan har bir o‘smir ham o‘z joniga qasd qilavermaydi. Bundan tashqari, muammo haqida oshkora gapirmaslik va hatto ba’zi mamlakatlarda noqonuniy deya ko‘rilishi aniq ma’lumotlarni qo‘lga kiritishni mushkullashtiradi. AQShning Jarohatlarning oldini olish agentligiga ko‘ra, haqorat va o‘z joniga qasd qilish orasida bog‘liqlik bor, lekin bu bog‘liqlik sodda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik emas. "Haqoratga uchragan o‘smir va yoshlar o‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq amallarga

qo‘l urganlari haqida ham ko‘proq xabar beradilar... Lekin o‘z joniga qasd qilishning asosiy omili haqorat, deya aytish to‘g‘ri emas va hatto zararlidir. Chunki "haqoratga tegishli javob o‘z joniga qasd qilish ekan" degan fikrni keltirib chiqarib, ustiga-ustak bu amalga taqlid qilish kabi xavfli holatni ham keltirib chiqarishi mumkin".

Ba’zi taxminlarga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilishlar haqida matbuotdagi "olamshumul" xabarlar ham taqlid qiluvchilarga turtki berishi mumkin. Mutaxassislar buni "ijtimoiy virusning tarqashi" deya ataydilar.

Suitsid muammosi hozirda nafaqat jahon psixologlarining balki barcha soha vakillariga birdek taluqli. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining malumotlariga qaralganda uning o‘zish suratini kun sayin yuqorilab borayotganini ko‘ramiz demak u bilan kurashishdagi amaliy ishlar o‘z samarasini to‘liq bermayapti desak to‘g‘ri bo‘ladi. Nafaqat amaliy balki nazariy malumotlarni ham tartiblab olish uni konkret masalalarni yechishga qaratish lozim deb topdik.

1. Suitsid bu har bir psixolog tomonidan malum bir darajada o‘rganilgan jarayon va bu o‘rganishda o‘z nazariyalariga bo‘g‘lashga harakatlar uning yechishga bo‘lgan harakatlardan biroz yiroqlab ketishga olib kelgan. Shuning uchun bu malumotlarni tartiblab chiqish lozim.

2. Dinning tasiridan to‘g‘ri yo‘nalgan holda suitsid muammosini oldini olish mumkin. Din bu har qanday psixologik tasirdan ko‘ra samarali va keng miqyosda tasir qila olish hususiyati mavjud. AQSHning Stokton universiteti professori David Lester ishlarini bunga yaqol dalil hisoblanadi.

3. Hozigi kunda islom dinidagi shahid atamasini noto‘g‘ri talqin qilish uning suitsid bilan sinonim tarzda ishlatishga olib keldi. Buning sababi insonlarning diniy bilimlarining yetarli darajda emasligi bildiradi. Va buning oqibatida insonlar qaysidir guruhlarning o‘ljasi bo‘lib qolmoqda.

4. Suitsidga doir ko‘plab metodikalar mavjud lekin dindor shaxslarni psixologik diagnostikasi bu haqiqatdan ham rivojlantirishga muhtoj yo‘nalish hisoblanadi. Bu sohadagi rivojlanish inson psixikasini o‘rganishdagi katta qadamlardan biri bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzini_o%CA%BBldirish
2. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO JURNALI*, *2*(1), 628-631.